

12.Валидов А. З. Восточные рукописи в Ферганской области // Записки Восточного Отделения Императорского Русского Археологического Общества. – Петроград, 1915.

13.Каримов Ғ. Шавқий поэзиясининг реалистик кучи // Шарқ юлдузи. 1963. №2. Б.44-46

14.Набиев Р. Из истории Кокандского ханства (феодалное хозяйство Худаяр-хана). - Ташкент: Фан. 1973.

15.Наливкин В. Краткая история Кокандского ханства. – Казань, 1886.

16.Носиров О. Шавқий Намангонийнинг янги кўлёмаси. “Ўзбекистон маданияти” газетаси. 1965 йил 3 ноябрь сони.

17.Халилбеков А. Наманган адабий муҳити. -Тошкент: Рухафзо, 1998.

18.Лутфиллаев Ҳ., Қўлдошев Ш. Қўқон хонлиги тарихи назми манбаларда. - Тошкент: Академнашр, 2016.

19.Тухфатул Обидин ва унсун ошиқин. Тошкент., 1911.

Қўқон хонлигида амлок ва хон ерларидан фойдаланиш тартиблари.

Холматов Мухсин Мўйдинович.

ҚўқонДУ “Тарих” кафедраси катта ўқитувчиси.

Тел: +99890-507-89-58 E-mail: xolmatovm1966@gmail.com

М. Мадаминов, ҚДУ талабаси

Аннотация: Ушбу мақолада Қўқон хонлигида мавжуд бўлган ер ҳуқуқи ва ер эгалиги шакллари, давлат ва хон ерларини, солиқ ва мажбуриятларни тарихий манбалар асосида таҳлил қилиш ва ёритиб беришга ҳаракат қилинган.

Калит сўзлар: ер ҳуқуқи, ер эгалиги, ер эгалиги шакллари, давлат ерлари, хусусий ерлар, солиқлар, мажбуриятлар, хирож, танобона, амлок, закот, коранда.

Аннотация: В данной статье предпринята попытка проанализировать и осветить существующие земельные права и формы собственности на землю,

государственные и ханские земли, налоги и повинности в Кокандском ханстве на основе исторических источников.

Ключевые слова: земельное право, землевладение, формы землевладения, государственные земли, частные земли, налоги, повинности, рента, танобона, собственность, закят, коранда.

Abstract: This article tries to analyze and cover the existing land rights and land ownership forms, state and khan lands, taxes and duties in the Kokand khanate on the basis of historical sources.

Keywords: land law, land tenure, forms of land tenure, state lands, private lands, taxes, obligations, rent, tanobona, property, zakat, koranda.

Кўқон хонлиги иқтисодиётининг асосини деҳқончилик ва чорвачилик ташкил этади. Аҳолисининг кўп қисми ўтроқ ҳаёт кечириб, қишлоқларда, шаҳар атрофларида деҳқончилик билан шуғулланганлар. Қипчоқлар хонлигининг сиёсий ҳаётида фаол иштирок этишлари натижасида ярим (ўтроқ) кўчманчи ҳаёт кечиришган, шунингдек шаҳар ва қишлоқларга яқинроқ жойларда кўчиб юришга ҳаракат қилганлар. Қирғизлар ва қозоқлар эса кўчманчи халқлардан эди.

Қишлоқ хўжалиги хонлик иқтисодиётининг асосини ташкил қилади. Деҳқончилик маҳсулотлари хонлик ўтроқ аҳолисининг озиқ-овқат манбаи бўлиб, майда хунармандчилик саноати учун хом ашё вазифасини бажарган, четга олиб чиқилган. Хонлигининг кўчманчи ва ярим кўчманчи аҳоли яшайдиган ҳудудларида асосий манба чорвачиликдан иборат бўлган. Қишлоқ хўжалигининг иқтисодий тузилиши ва ривожланиш йўналишлари натурал хўжаликка асосланган эди. Қишлоқ хўжалик экинларидан буғдой, арпа, жўҳори, шоли ва бошқа экинлар етиштирилган. Буғдой, айниқса шоли жуда қиммат турган, шунинг учун А.Миддендорф «жўҳори камбағалда умид уйғотади»[1.—Б:243], яъни камбағалнинг асосий овқати эканлигини таъкидлаб ўтган.

Техника экинларидан асосийси пахта ҳисобланар эди. 1813-1814 йилларда Қўқонда бўлган элчи Филипп Назаров «Қўқон ва бутун Қўқон хонлиги пахта ва тут дарахтларига жуда ҳам бойдир»[2. – Б:51] деб таъкидлаган эди.

Бутун мусулмон мамлакатларида, Қўқон хонлигида ҳам ерга нисбатан мулк ҳуқуқий жиҳатдан фақат давлатга тегишлидир. Ернинг олий эгаси хон ҳисобланиб, фақат унинг рухсати билангина хусусий ва жамоа ерларига эгалик ташкил этилган.

Хонликда иккита ер эгалиги шакли мавжуд: давлат ва хусусий ер эгалиги. Хусусий ер эгалиги шахсий ва вақф ер эгалигига бўлинган.[3.-Б:46]

Бутун ер давлатники ҳисобланганлиги учун ҳам хусусий мулкдорларга ер эмас, балки унинг маҳсулоти-экинлар ва иморатлар кирар эди. Мулкдорлар ҳосилнинг бешдан бир қисмини солиқ тарзида ҳукмдорга берар эди. У амалдорлар ёки ҳарбий хизматчиларга тўланадиган ойлик (маош) хизматини ўтар эди.

Амлок ерлар олий ҳукмдор хонга тегишли бўлиб, ҳамма ишлатиладиган ерлар, далалар ва боғлар, яйловларга тўлиқ давлат эгалик қилар эди. Амлок ерларининг катта қисми бевосита ишлаб чиқарувчилар-деҳқонлар ўртасида ижара шаклида кенг тақсимланиб берилган, деҳқон умрини охирига қадар ижарачи бўлиш ҳуқуқига эга бўлган ва ҳамма солиқларни тўлашга, давлат мажбуриятларини бажаришга маъсул эди. Амлок ерларининг эгаларида доимий ердан фойдаланиш ҳуқуқи сақланиб қолган, аммо тўлиқ мулк ҳуқуқи қўлга киритилмаган.

Хонликда ер солиғи-рента шакли ўрнатилган бўлиб, у тўғридан-тўғри деҳқонлар томонидан давлатга тўланган. А.Л.Куннинг маълумотига қараганда, расмий солиқлар қуйидагилардан иборат бўлган: натурал хирож ёки ўндан бир солиқ, закот-товардан олинадиган савдо солиғи ва ҳайвонлар ҳисобидан олинадиган солиқ, бозорда савдогарлардан олинадиган солиқ, тарози солиғи, дарёдан ўтиш учун солиқ, туз божи ва яна махсус солиқлар ҳам бўлган.

Вилоят ҳокимларига хирож ва танобона солиқларини олиш ҳуқуқи берилган эди. Худоёрхоннинг охири давларида (1865-1875йй) хон хазинасига ҳар йили бир ярим миллион рублга тенг солиқ тушарди.[4. – Б:5]

Агар хонликда амлоқдор уч йил мобайнида ердан фойдаланмаса хирож (ижара) солиғи тўламас эди ва амлоқдор ерга эгалик қилишдан маҳрум этилар эди. Бундан келиб чиққан ҳолда, биринчидан Қўқон хонлигида амлоқдорнинг амлоқ ерларга эгалиги ҳуқуқи алоҳида бўлиб, давлатнинг фармойишларига қарам ҳисобланган. Иккинчидан, бу ерларга эгалик қилиш ҳуқуқи абадий эмас эди, агар ерга ишлов бериш тўхтатилса, ер давлатга қайтариб олинган, амлоқдорнинг ерга бўлган ҳуқуқи тўхтатилган.

Амлоқ ерлар шаклига яқин турувчи навбатдаги ер эгалиги кўриниши «хон ерлари» (хоннинг удел ерлари) деб номланади. А.Л.Троицкая Қўқон хонлигининг архив материалларини атрофлича ўрганиб, хон ерларини учта гуруҳга ажратади:[5. – Б:56]

- 1) даромади хон саройи учун сарфланадиган махсус ажратилган ерлар;
- 2) ов қилинадиган ерлар;
- 3) хон ва унинг оила аъзоларига қарашли ерлар.

Қўқон хонлигидаги асосий даромади хон саройи учун сарфланадиган махсус ажратилган хон ерлари хос ёки хослик деб юритилган. Хослик ерларидан солиқ фақат хон қарори билангина олинган. Солиқлар ҳокимга эмас, хоннинг ўзига ёки сарой амалдорларига топширилган.

Хон ерларини ишлатиш учун ижарачиларга берилган, шу билан биргаликда ижарачилар ҳашар (ишлаб бериш) рентасини қабул қилганлар, мардикорларни ёлланма меҳнатидан кам ҳолларда фойдаланилган. Архив ҳужжатларида ижарачи ва мардикор иккита термин бўйича учрайди: чекчи ва коранда.

Ижарачилар асосан хонга яқин бўлган кишилар, бойлар, қишлоқ оқсоқоллари, бошлиқлари, мирзалар, хожилар ва бошқа кишилардан иборат

бўлади. Ижарачилар эса ўз ерларини яна ижарага беришган. Уларнинг ёлланма ишчилари шу ерда яшаганлар.

Ижарачилар ва мардикорлар ердан фойдалангани учун солиқ тўлашган. Улардан хирож икки марта ундириб олинган: биринчиси, умумий ҳосилнинг ҳисобидан (ҳосил йиғиштирилгандан сўнг), иккинчиси эса, мардикорнинг фойдасидан. Ижарачи ва мардикор етиштирган ҳосилнинг умумий ҳисобидан олинган солиқ эса хирожи деҳқон деб номланган. Шунингдек, бу солиқ хирожи карондаи тан ёки қисқартириб хирожи тан деб ҳам юритилади.

Хон ерларида ҳашардан кенг фойдаланилган: Қўқон хонлигидаги ҳашар ишлари хон ерларида йилда ўтказилган. Деҳқонлар ҳашарда ўз отлари, хўкизлари, арвалари ва меҳнат қуроллари билан иштирок этишган. Хон девони ҳашар пайтида қишлоқ аҳолисини рўйхатини тузиб, ана шу асосда деҳқонлар навбатма-навбат ҳашарга чиқишган. Ҳар бир деҳқон йилда уч кун ишлаб бериши шарт эди.

Хулоса сифатида шуни айтиш керакки, Қўқон хонлигида давлат ва хон ерлари асосий давлат ҳудудларидаги ишланадиган ерларининг кўпчилик қисмини ташкил этган ва бу ерлардан олинадиган даромадлар хонлик хазинасининг асосий манбаларидан бири бўлган.

Фойдаланилган адабиётлар.

1. Миддендорф А.Ф. Очерки Ферганской долины. СПб., 1882
2. Назаров Ф. Записки о народах изимлях средней часты Азии. М.; 1968.
3. Джамгерчинов Б. Очерки политечиской истории Киргизии XIX века. Фрунзе, 1966
4. Кун А.Л. Очерки Кокандского ханства. 1877.
5. Троицкая А.Л. Архив кокандских ханов XIX в . М; 1968 (каталог содержит около 5 тыс, документов архива какандском ханов XIX века).

QO‘QON XONLIGIDA AHOLINING OMMAVIY ISHLARGA SAFARBAR QILINISHI TARIXSHUNOSLIGI

T.Nuridinov, QDU Tarix kafedrası dotsenti, tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD).

Annotatsiya.

Mazkur maqolada Qo‘qon xonligida aholini ommaviy ishlarga safarbar etish tizimining tarixiy manbalarda va ilmiy adabiyotlarda yoritilishi, ushbu masala bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar hamda mehnat majburiyatlarining davlat va jamiyat hayotidagi o‘rni tarixshunoslik asosida tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: Qo‘qon xonligi, hashar, mardikor solig‘i, sug‘orish tizimi, mehnat majburiyati, tarixshunoslik, irrigatsiya, ijtimoiy-iqtisodiy hayot, Farg‘ona vodiysi.

Annotation.

This article analyzes, from a historiographical perspective, the coverage of the system of mobilizing the population for mass public works in the Kokand Khanate in historical sources and scholarly literature, the research conducted on this issue, as well as the role of labor obligations in the life of the state and society.

Keywords: Kokand Khanate, hashar, labor tax, irrigation system, labor obligation, historiography, irrigation, socio-economic life, Fergana Valley.

Qo‘qon xonligi tarixan bir yarim asrdan ortiq vaqt davomida mavjud bo‘lib, O‘rta Osiyo xalqlarining siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, diniy va madaniy hayotida muhim iz qoldirgan davlatlardan biri hisoblanadi. Bugungi kunga qadar xonlik tarixining turli yo‘nalishlarini o‘rganishga bag‘ishlangan ko‘plab ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilgan. Jumladan, A. Xasanov, A. Juvonmardiyev, A. L. Troitskaya, R. N. Nabiyeu, F. G‘afforov, V. M. Ploskix, T. Q. Beysembiyev, E. Xurshut, H. N. Bobobekov, Sh. Mahmudov kabi olimlar Qo‘qon xonligi tarixining turli masalalarini chuqur tadqiq etganlar. Ularning ilmiy izlanishlarida tarixiy manbalar asosida xonlikning iqtisodiy ahvoli, davlat boshqaruvi, yer egaligi, sug‘orish tizimi va ijtimoiy munosabatlariga oid muhim ma‘lumotlar yoritilgan.

Xususan, A. Juvonmardiyev o‘z tadqiqotlarida xonlikdagi soliq tizimi hamda davlatning aholini ijtimoiy himoya qilish borasidagi tadbirlariga alohida e‘tibor qaratadi[1]. R. N. Nabiyeu esa XIX asrning 50–70-yillaridagi Qo‘qon xonligi tarixini o‘rganishda salmoqli hissa qo‘shib, so‘nggi hukmdor Xudoyorxon davridagi feodal xo‘jalik, oliy hukmdorning iqtisodiy qudrati va uning manbalari

haqida hujjatli materiallar asosida qimmatli fikrlar bildiradi. Shuningdek, muallif xonlikdagi yer egaligi shakllari, sug‘orish inshootlarining bunyod etilishi hamda mehnat majburiyatlari haqida muhim ilmiy xulosalar beradi.

Qo‘qon xonligida kechgan siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy jarayonlar H. N. Bobobekov, H. Z. Ziyoyev, Z. A. Ilhomov, M. Yahyoxon kabi tadqiqotchilar tomonidan ham keng yoritilgan bo‘lib, mazkur ilmiy ishlar xonlik tarixini kompleks o‘rganishda muhim manba vazifasini bajaradi.

Qo‘qon xonligidagi soliqlar va aholini ommaviy mehnatga safarbar etish masalalari yuzasidan maxsus tadqiqotlar alohida olib borilmagan bo‘lsa-da, ushbu muammoning ayrim jihatlari A. O‘rinboyev, A. Juvonmardiyev, R. Nabiye, H. Bobobekov kabi olimlarning ilmiy izlanishlarida qisman yoritilgan.

Xonlikda mavjud bo‘lgan mehnat majburiyatlari tizimini alohida o‘rganish Qo‘qon xonligining ijtimoiy-iqtisodiy hayotiga xos ayrim muhim jihatlarni chuqurroq anglash imkonini beradi. Chunki davlat boshqaruvi va xo‘jalik tizimida turli shakldagi mehnat majburiyatlari mavjud bo‘lib, ular asosan sug‘orish inshootlarini barpo etish, kanal va ariqlar qazish, shuningdek, bahor mavsumidagi obodonchilik ishlari jarayonida keng qo‘llanilgan. Tarixiy manbalarda ushbu mehnat majburiyatlari turli nomlar bilan qayd etilgan.

Jumladan, soliqlardan ozod etish to‘g‘risidagi ayrim yorliqlarda “jamarg‘ayi yurtiya” atamasi uchraydi. Sharqshunos olim A. Juvonmardiyev mazkur tushunchani bevosita ishlab berish majburiyati, ya‘ni aholining davlat yoki jamoat ehtiyojlari yo‘lida majburiy mehnat qilishi shakli sifatida talqin etadi. Bu holat Qo‘qon xonligida aholini ommaviy mehnatga jalb qilish tizimi davlat xo‘jalik siyosatining muhim tarkibiy qismi bo‘lganligini ko‘rsatadi[1. – B. 65].

Muarrix Muhammad Aziz Marg‘iloniy esa Ulug‘nahr kanalini qazish jarayonidagi mehnat majburiyatini “mardikor solig‘i” deb ta‘riflaydi[3. – B. 15-16]. Boshqa tarixiy ma‘lumotlarga ko‘ra, aholi o‘rtasida mazkur majburiyat “hashar” nomi bilan ham yuritilgan. Bu holat mehnat majburiyatlarini nomlashda davlat hujjatlarida va xalq orasidagi og‘zaki muomalada turlicha atamalar qo‘llanilganligini ko‘rsatadi.

Ma‘lumki, Qo‘qon xonligi iqtisodiy hayotining asosini sug‘orma dehqonchilik tashkil etgan bo‘lib, xonlar iqtisodiy siyosatida sug‘orish tarmoqlarini barpo etish hamda ularni muntazam ravishda ta‘mirlab borish muhim yo‘nalishlardan biri hisoblangan. Vodiy hududlarida sug‘orish inshootlari qurilishi, ayniqsa, Umarxon va Madalixon hukmronligi davrida keng rivojlangan. O‘rta Osiyoning sug‘orma dehqonchilik taraqqiy etgan hududlari tarixiga nazar

tashlansa, sug‘orish tarmoqlarini qurish ishlari keng xalq ommasining ishtiroki bilan amalga oshirilganligi ayon bo‘ladi.

Asrlar davomida shakllangan ushbu an‘ananing o‘ziga xos jihati shundaki, sug‘orish inshootlarining bunyod etilishidan hukmdorlar, yirik yer egalari va oddiy dehqonlar birdek manfaatdor bo‘lgan. Chunki asosiy daromad manbai hisoblangan dehqonchilik yer maydonlarini kengaytirish yangi sug‘orish tarmoqlariga ehtiyoj tug‘dirgan. Qo‘qon xonligida mehnat majburiyati oliy hukmdor yoki viloyat hokimining farmoniga asosan tashkil etilib, har bir xonadondan bir kishining ma‘lum muddat davomida o‘z ish quroli bilan ishlab berishi talab qilingan.

Hashar ishlari bir kunlik, ikki kunlik, uch kunlik va undan ortiq muddatli shakllarda tashkil etilgan[4. – C. 255]. Ayrim hollarda bir necha kun davom etadigan ommaviy mehnat majburiyatlari ham mavjud bo‘lgan. Masalan, Umarxon tomonidan 1819-yilda Yangiariq kanalini qazish ishlari uchun Namangan viloyatidagi har bir oiladan bir kishining o‘z oziq-ovqati va ketmoni bilan 15 kun davomida hashar ishlarida qatnashishi haqida maxsus buyruq chiqarilgan. Ushbu ma‘lumot Qo‘qon xonligida aholini ommaviy mehnatga safarbar etish tizimi davlatning irrigatsiya siyosatida muhim o‘rin tutganligini tasdiqlaydi.

Aholi mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy hayotining boshqa sohalarida ham hashar ishlariga keng jalb etilgan. Ular nafaqat sun‘iy sug‘orish inshootlarini barpo etish, mavjudlarini ta‘mirlash va tozalash, balki saroylar, madrasalar, masjidlar, harbiy istehkomlar hamda mudofaa inshootlarini qurish jarayonlarida ham faol qatnashganlar. Ommaviy hashar mehnatidan qishloq xo‘jaligi ishlarida ham samarali foydalanilgan bo‘lib, xususan, sholi yetishtirish, qamish o‘rish, o‘tin va yantoq yig‘ish kabi yumushlarda keng qo‘llanilgan.

Masalan, 1866–1867-yillarda G‘umayli, Dang‘ara, Oltiqush, Amirobod, Qirqlar, Qizilmusht, Eshon bobo va Aravon qishloqlari oqsoqollari hamda fuqarolariga Yermasjid yaqinidagi botqoq hududlardan qamish o‘rish uchun hashar ishlariga chiqish buyurilgani haqida ma‘lumotlar mavjud. Bu esa Qo‘qon xonligida mehnat majburiyatlari nafaqat irrigatsiya yoki qurilish ishlari, balki xo‘jalikning turli tarmoqlarida ham keng qo‘llanilganini ko‘rsatadi.

Sovet davrida nashr etilgan tarixiy adabiyotlarda mehnat majburiyati ko‘pincha aholiga yuklatilgan “og‘ir majburiyat” sifatida baholangan. Darhaqiqat, ushbu majburiyatlar aholining jismoniy mehnatini talab etgan va uning asosiy samarasidan hukmdorlar, amaldorlar hamda jamiyatning yuqori tabaqalari ko‘proq foydalangan. Majburiy mehnatni bajaruvchi oddiy aholi esa ko‘pincha o‘z og‘ir turmush sharoitida qolgan. Shu sababli, bunday holatlar ayrim hollarda xalq noroziligiga ham sabab bo‘lgan.

Biroq masalaning ikkinchi jihatida ham mavjud. Mehnat majburiyatlari negizida faqat hukmdorlar manfaatlari emas, balki yurt obodligi, sug‘orish tizimining rivoji, qishloq xo‘jaligi taraqqiyoti va jamoat manfaatlari ham mujassam edi. Asrlar davomida davlat boshqaruvi tarixida obodonchilik va jamoaviy bunyodkorlik ishlarini amalga oshirishda hashar tizimi muhim o‘rin tutgan. Mazkur an‘ana bugungi kunda ham o‘zining ijtimoiy ahamiyatini saqlab qolgan bo‘lib, xalqning birdamligi va umumiy manfaat yo‘lidagi hamkorligi timsoli sifatida davom etmoqda.

Xonlikning chorvador aholisi xo‘jalik yuritish va turmush tarzi xususiyatlaridan kelib chiqib, ommaviy mehnat ishlariga dehqon aholiga nisbatan kamroq jalb etilgan. Buning asosiy sababi ularning ko‘chmanchi yoki yarim ko‘chmanchi turmush tarziga ega bo‘lganligi bilan izohlanadi. Chorvador aholidan asosan zakot solig‘ini undirish jarayonida davlat nazorati kuchliroq bo‘lgan. Zakot yig‘ish uchun devonbegi ko‘pincha harbiy otryadlar yordamidan foydalangan. Bu, bir tomondan, soliq yig‘uvchilarning xavfsizligini ta‘minlash, ikkinchi tomondan esa undirib olingan chorva mollari va boshqa boyliklarni markazga yetkazib borishni osonlashtirish maqsadida amalga oshirilgan.

Xulosa. Shunday qilib, Qo‘qon xonligida O‘rta Osiyoning boshqa davlatlarida bo‘lgani kabi ommaviy mehnat majburiyatlari tizimi mavjud bo‘lib, ijtimoiy va xo‘jalik ahamiyatiga ega bo‘lgan inshootlarni bunyod etishda qo‘l mehnatidan keng foydalanilgan. Sug‘orish tarmoqlari, mudofaa inshootlari, diniy-ma‘rifiy binolar hamda boshqa jamoat obyektlarini qurishda aholini majburiy yoki jamoaviy mehnat asosida safarbar etish davlat siyosatining muhim tarkibiy qismi bo‘lgan.

Mazkur masalani chuqur va atroflicha o‘rganish shuni ko‘rsatadiki, mehnat majburiyatlari ko‘pincha ayrim hukmdorlar yoki amaldorlarning manfaatlari bilangina cheklanib qolmagan, balki jamiyat taraqqiyoti, fuqarolar ehtiyojlari va yurt obodligi yo‘lida ham muhim rol o‘ynagan. Shu bois, Qo‘qon xonligidagi ommaviy mehnat tizimini tarixiy jarayon sifatida baholashda uning ham ijtimoiy yuklama, ham umumdavlat manfaatlariga xizmat qilgan ikki tomonlama mohiyatini inobatga olish muhimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Жувонмардиев XVI - XIX асрларда Фарғонада ер-сув масалаларига доир. – Тошкент: Фан, 1965.
2. Бобобеков Ҳ.Н. Қўқон тарихи. – Т.: Фан, 1996.
3. Муҳаммад Азиз Марғилоний. Тарихи Азизий. – Тошкент: Маънавият, 1999. – Б. 15-16.